

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**SHABANOVA Sevinch Djumaliyevna**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*1-bosqich tayanch doktoranti*  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174506>

## ISPAN VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA OLAMNING LISONIY MANZARASI TUSHUNCHASIGA DOIR QARASHLAR

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola jamiyatda til, ya'ni lingvistika sohasining ahamiyati va aynan u orqali qolgan barcha sohalarning nomlanishi va tasvirlanishi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada olam manzarasi turli jihatlaridan taqqoslanadi: turli xalqlarda u bo'yicha tasavvur qandayligi va ushbu tasavvur qanday shakllanganligi haqida fikr yuritiladi. Olamning lisoniy manzarasi aks etgan maqollardan namunalari keltiriladi va izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** olam, til, lisoniy, obyektiv, obraz, manzara, madaniyat, fiziologik.

## ВЗГЛЯДЫ НА ПОНЯТИЕ ЯЗЫКОВОГО ЛАНДШАФТА ВСЕЛЕННОЙ НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о важности языка, то есть области лингвистики в обществе, а также наименование и описание через него всех других областей. Также в статье сравнивается взгляд на мироздание с разных сторон: обсуждается, что такое видение разных народов и как формируется это видение. Представлены и объяснены примеры пословиц, отражающих языковой ландшафт мира.

**Ключевые слова:** мир, язык, языковой, предметный, образ, ландшафт, культура, физиологический.

## VIEWS ON THE CONCEPT OF THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE UNIVERSE ON THE EXAMPLE OF SPANISH AND UZBEK

### ANNOTATION

This article provides information about the importance of language, i.e. the field of linguistics in society, as well as the name and description of all other fields through it. The article also compares the view of the universe from different sides: it discusses what the vision of different peoples is and how this vision is formed. Examples of proverbs reflecting the linguistic landscape of the world are presented and explained.

**Keywords:** Universe, language, linguistic, objective, image, landscape, culture, physiological.

### *Kirish*

Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir.

Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so'zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi, deb nomlanadi. Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi.

Olam - o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi - inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo'linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obyektlariga bo'lgan munosabatni namoyon qiladi.

### *Adabiyotlar tahlili va metodologiya*

Olamning obrazini to'g'ridan to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini "odatdagi" bilish orqali anglab bo'lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini " mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so'zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so'zli hosila" sifatida umumiy shaklda izohlagan.

M. Xaydeggerning qayd qilishicha, "manzara" so'zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o'ylaymiz, "olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi". Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin.

Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida angelaydi. Bu o'rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi.

### *Muhokama va natijalar*

Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo'ladi.

Bu o'rinda ko'p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til strukturasi teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydi.

Insonning nutqiy faoliyati tug'mami yoki keyin shakllanganmi? degan savol haligacha munozarali bo'lib qolmoqda. Insonning nutq imkoniyatini psixofiziologik mexanizm bilan ta'minlaydigan tug'ma lisoniy qobiliyatga egaligini barcha e'tirof etgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bu inson miya qobiliyatining dastlabki ontogenez yillaridagi birinchidan, muayyan til belgilari tizimini, ikkinchidan, matn tuzishda kerakli belgilarni tanlash qoidalarini o'zlashtirishini ifodalaydi. Lisoniy qobiliyatni amalga oshirish atrofida muayyan til egalari bilan muloqot qilish jarayonida yuz beradi.

N. Xomskiyning ta'limotiga ko'ra, lisoniy qobiliyatning tug'ma komponenti juda sermazmun bo'ladi, shuning uchun ontogenezda til o'rganish "noldan" boshlanmaydi. Lisoniy qobiliyat ayrim tug'ma va universal bilimlarni o'z ichiga oladi, inson ular yordamida jumlar hosil qiladi va tushunadi. Shunday qilib, N.Xomskiy til strukturasi va semantikaning botiniy xususiyatlarini tabiiy-genetik asosga tutashtiradi.

"Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga madaniyat tarixchisi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat o'zaro munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, ikkita savol tug'iladi:

- 1) turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- 2) madaniyatga til qanday ta'sir qiladi?

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi" degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda. I.Gerderning 1770-yilda yozilgan "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi. Tilda aks ettirilgan olamgina mavjud. Modomiki, har bir til borliqni o'ziga xos usullar bilan aks ettirar ekan, unda tillar bir-biridan o'zining "olamning lisoniy manzarasi"ga ko'ra farqlanadi. E. Sepir va B.Uorfning gipotezasida quyidagi asosiy masalalar ajratiladi:

1. Til unda so'zlashuvchi xalqning tafakkur usuli bilan bog'liqdir.
2. Olamni bilish usuli subyektlarning qanday tillarda fikrlashiga bog'liqdir.

Uchinchi yondashuvga ko'ra, til madaniyatning dalilidir:

- 1) til - biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi;
- 2) 2) til -madaniyatni o'zlashtirishning asosiy vositasi;
- 3) til - barcha madaniy hodisalarning eng muhimi.

Xullas, til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasidir. U ruhimizning borlig'i, madaniyatimizning ko'rinishidir; u milliy mentallikning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson oldida tafakkur sohasini ochgan mexanizmdir (N.I.Jinkin). O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p va xo'p shug'ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin.

Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir".

O'zbek tilshunosligida olam lisoniy va konseptual manzarasida lisoniy birliklarning ilmiy-amaliy tadqiqi izchil o'rganilmoqda. Shu qatorda o'zbek tilini boshqa tillarga chog'ishtirgan holda uning boyliklarini yuzaga chiqarish hamda rivojlangan tillar qatoriga qo'shish davlat siyosati masalasiga aylandi, "...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish", "davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish" masalalari kun tartibiga qo'yildi. Olam manzarasi xalqlarga tegishli til, din, adabiyot orqali ifodalanadi, muayyan madaniyatga oid insonlar faoliyatining verballashuvida namoyon bo'ladi va ushbu etnosga xos stereotip tushunchalarni aks ettiradi.

O‘zbek va ispan tillariga xos olam manzarasi tadqiqi hozirga qadar maxsus fundamental o‘rganish ob’ekti bo‘lmaganligi, olam manzarasini kategoriyalashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Olamning konseptual manzarasidan olamning lisoniy manzarasi kengroq, deb hisoblanadi. G.Brutyanning fikricha, olamning konseptual manzarasi olam lisoniy manzarasining “mag‘zi, asosiy qismi”ga mos keladi, ya’ni “olam lisoniy modelining asosiy mazmuni olamning konseptual modeliga xos bor mazmunni qoplaydi”, ya’ni olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasi tomonidan qamrab olinadi. Bu xuddi fizika fanida keng o‘rganilayotgan, borliqdagi barcha narsani yutib yuborayotgan qora tuynukka o‘xshaydi. Olamning konseptual manzarasi chegaralari ortida borliq-dunyo to‘g‘risidagi qo‘shimcha axborot tashuvchi chekka periferiyalari qolib ketadi. Bunda olamning ham lisoniy, ham konseptual manzarasiga kiruvchi axborot u qaysi tilda ifodalanishidan qat’i nazar, invariant hisoblanadi.

Ispan tilshunosligida ham “konsept”ga turlicha yondashuvlar bor. X.Porto va M.Merinolarning fikricha, “*Un concepto es, por lo tanto, una unidad cognitiva de significado. Nace como una idea abstracta (es una construcción mental) que permite comprender las experiencias surgidas a partir de la interacción con el entorno y que, finalmente, se verbaliza (se pone en palabras).*” Konsept borasida aniq ta’rifning yo‘qligi uning “tasavvur-tushuncha-so‘z ma’nosi” paradigmasidagi o‘rnini begilashda murakkablik tug‘diradi. Konseptning mental mazmunida “ongshuur birligi” tushunchasi singib ketgan.

“Kognitiv konseptlar –bu individual mazmunli mental tuzilmalarbo‘lib, atrofda voqelikni tartibga soladi va qayta tizimlaydi, madaniy konseptlar esa – bu jamoaviy mazmundagi mental tuzilmalar bo‘lib, ular o‘zlari tegishli bo‘lgan madaniyatning xususiyatlarini ko‘rsatadi»Ikki til olam manzarasida individual tushunchalar bilan bir qatorda umumiylik ham mavjud. Masalan, *la vida es mentira* – hayot bu, ro‘yo, ya’ni hayot yolg‘onga mengzaladi. O‘zbek olam manzarasida hayot – o‘tkinchi modelida o‘tib ketuvchi, vaqtinchalik kabi ma’noanglashiladi.Ispan lisoniy manzarasida jigar – *el hígado* leksemasining o‘zbek tilidagidek ko‘chma ma’nolari kuzatilmaydi. Yaqin qarindosh-urug‘larni atashda ispan tilida *sol* (quyosh), *cielo* (osmon), *corazón* (yurak) kabi so‘zlar qo‘llanadi, ammo ular o‘zbek tilidagi jigar leksemasining ma’no-mazmunini to‘liq qamrab olmaydi. Qizig‘i, pul haqida gap ketganda o‘zbek lisoniy manzarasida inson tana a’zosi jigar qo‘llansa, ispan tilida narx-navo haqida gap ketganda *riñon* (buyrak) ishlatiladi.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak o‘zbek va ispan millati ongu shuuriga singib ketgan, olamning turli manzaralarini tavsiflashda madaniy kod tushunchasi va uni deshifrovkalashning ilmiy ahamiyati bu xalqlarning dunyoqarashi, etnopsixikasi, urf-odatlarining umumiylik va xususiylik jihatlarini o‘zida qamragan, aksiologik-baholovchi xususiyatga ega lingvistik birliklarning qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqida yaqqolroq namoyon bo‘lishi tushunchalarning etnoslar tafakkuri va madaniyati tashuvchisi sifatida shakllanganligida ko‘rinadi.

**IQTIBOSLAR. СНОСКИ. REFERENCES.**

1. Bakhronova D., Omonov Q. “Ikki til muhokamasi” asari va komparativistika. //O‘zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlarI/Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, 2021-yil 15-mart.

2. Бахронова Д. Олам манзарасининг миллий-маданий ва лингвокогнитив категориялари. Монография. Тошкент, “Турон” нашриёти, 2021. –256 б. (14,6 б.т.) В.110-113.

3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. -М.: Издательский центр «Академия», 2001.-С.60.

4. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>

5. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>

6. Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова. Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024-1: 110-127.

7. Анорбоева С. (2024). ПОДГОТОВКА ПЕРЕВОДЧИКОВ С ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 176-180. <https://doi.org/10.2024/5mckbz69>

8. АНОРБОЕВА, С. (2024). SYSTEMS OF TRANSLATOR TRAINING IN UZBEKISTAN UNIVERSITIES AND A MODERN MODEL OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TRANSLATOR. *News of the NUUZ*, 1(1.10), 63-66. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.4534>